

**O‘ZBEK IZOHLI LUG‘ATIDA QISHLOQ XO‘JALIGI LEKSIKASINING SEMANTIK
XUSUSIYATLARI**

Bo‘riyev Jamshid Xudoyberdiyevich

Termiz davlat universiteti o‘zbek tili va
adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi
Tel: +998 94 469 93 34

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida qishloq xo‘jaligi leksikasining semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda terminlarning semantik tuzilishi, bir va ko‘p ma‘nolilik xususiyatlari hamda sinonimiya hodisasi asosida ularning o‘zaro munosabatlari o‘rganiladi. Qishloq xo‘jaligi terminlarining leksik-semantik tizimdagi o‘rni, ularning ma‘no kengayishi va ixtisoslashuvi jarayonlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, terminlarning milliy-madaniy komponentlari va lingvokulturologik xususiyatlari ham tahlil qilinadi. Izohli lug‘atlarda berilgan terminlarning semantik aniqligi, izohlarning to‘liqligi hamda ularning amaliy qo‘llanilishi muhim mezon sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari qishloq xo‘jaligi leksikasini tizimli o‘rganish, terminlarning semantik jihatdan mukammal tavsifini yaratish hamda lug‘atshunoslik amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: semantika, qishloq xo‘jaligi leksikasi, sinonimiya, polisemiya, leksik-semantik munosabatlar, termin semantikasi, lug‘atshunoslik, lingvokulturologiya, ma‘no tuzilishi, termin tizimi.

Kirish

Qishloq xo‘jaligi leksikasi o‘zining boy semantik tuzilishi, bir va ko‘p ma‘noliligi hamda sinonimiya hodisasi bilan o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida alohida o‘rin egallaydi. Terminlarning leksik-semantik tizimdagi o‘rni, ma‘no kengayishi va ixtisoslashuvi jarayonlari nafaqat lingvistik, balki lingvokulturologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi terminlarining milliy-madaniy komponentlari, ularning lingvokulturologik xususiyatlari, izohli lug‘atlardagi semantik aniqligi va izohlarning to‘liqligi tadqiqotning asosiy mezonlari sifatida qaraladi. Mazkur maqolada o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida qishloq xo‘jaligi leksikasining semantik xususiyatlari tizimli tarzda o‘rganilib, terminlarning sinonimik va polisemik munosabatlari hamda ularning amaliy qo‘llanilishi yoritiladi. Natijada, lug‘atshunoslik amaliyotini takomillashtirish va qishloq xo‘jaligi leksikasining semantik jihatdan mukammal tavsifini yaratishga ilmiy asos yaratiladi.

Asosiy qism

Qishloq xo‘jaligi leksikasining semantik xususiyatlari o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida terminlarning mazmuniy tuzilishini aniqlashda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur leksik qatlam, avvalo, o‘zining ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi, ya‘ni terminlar muayyan soha doirasida aniq va chegaralangan ma‘noni ifodalaydi. D.Egamberdiyeva [2, 122] ta‘kidlaganidek, qishloq xo‘jaligi terminlari umumtil leksikasidan farqli ravishda, ko‘proq denotativ ma‘noga ega bo‘lib, ularning emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligi nisbatan cheklangan bo‘ladi. Shu sababli, izohli lug‘atlarda bunday birliklarning aniq va lo‘nda ta‘riflanishi asosiy talab sifatida namoyon bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligi leksikasining muhim semantik xususiyatlaridan biri — bu

polisemiya (ko'p ma'nolilik) hodisasidir. Ba'zi terminlar dastlab umumiy ma'noda qo'llanib, keyinchalik ixtisoslashgan soha doirasida toraygan yoki yangi ma'no kasb etgan. Masalan, ayrim agrar terminlar kundalik nutqda kengroq ma'noda ishlatilsa, ilmiy kontekstda ular aniq bir jarayon yoki obyektни ifodalaydi. Bu jarayon terminlarning semantik evolyutsiyasi bilan bog'liq bo'lib, ularning lug'atlarda berilishida asosiy va hosila ma'nolarni izchil tartibda ko'rsatishni talab etadi [1, 248].

Sinonimiya hodisasi ham qishloq xo'jaligi leksikasining semantik tizimida muhim o'rin egallaydi. M.Xamidov [4, 51] fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligi terminlarida sinonimik qatorlar mavjud bo'lib, ular turli tarixiy, hududiy yoki funksional omillar asosida shakllangan. Masalan, bir xil tushunchani ifodalovchi bir nechta terminlar parallel qo'llanishi mumkin, bu esa lug'atlarda ularning o'zaro munosabatini ko'rsatishni zarur qiladi. Sinonim terminlarning berilishi foydalanuvchiga termin tanlashda aniqlik kiritadi hamda terminologik tizimning boyligini namoyon etadi.

Qishloq xo'jaligi terminlarining semantik tizimini o'rganishda ularning leksik-semantik munosabatlari — giperonimiya va giponimiya aloqalari ham muhim ahamiyatga ega. Bunda umumiy tushunchani ifodalovchi terminlar (giperonimlar) va ularning tarkibiga kiruvchi xususiy tushunchalar (giponimlar) o'rtasidagi munosabat aniqlanadi. Qayd etilganidek, bunday ierarxik tizim lug'atlarda terminlarning mantiqiy tartibda joylashtirilishini ta'minlaydi va ularning semantik maydonini to'liq ochib beradi [2, 123]. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi leksikasining semantik xususiyatlari uning lingvokulturologik jihatlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Agrar terminlar ko'pincha xalqning tarixiy tajribasi, an'analari va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Bu esa terminlarning ma'nosini faqat lingvistik jihatdan emas, balki madaniy kontekstda ham tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi [3]. Izohli lug'atlarda bunday birliklarning berilishi ularning milliy o'ziga xosligini ochib berishga xizmat qiladi.

Zamonaviy lingvistik yondashuvlar qishloq xo'jaligi leksikasining semantik tahlilida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, korpus lingvistikasi asosida terminlarning real nutqdagi qo'llanilishi, ularning kontekstual ma'nolari va semantik o'zgarishlari aniqlanmoqda. Bu esa lug'atlarda terminlarning faqat nazariy emas, balki amaliy qo'llanilishini ham aks ettirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, izohli lug'atlarni yaratishda an'anaviy leksikografik usullar bilan bir qatorda zamonaviy tahlil vositalaridan foydalanish muhim ilmiy yo'nalish sifatida e'tirof etiladi. Qishloq xo'jaligi leksikasining semantik xususiyatlarini yanada aniqroq ochib berishda konkret terminlar misolida tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Masalan, "ekin" termini umumiy ma'noda "yerga ekilgan o'simliklar majmui"ni anglatadi, biroq u kontekstga qarab toraygan ma'noda ma'lum bir o'simlik turini ham ifodalashi mumkin. Shu jihatdan bu birlikda polisemiya xos belgilar kuzatiladi. Izohli lug'atlarda bunday terminlarning asosiy va hosila ma'nolari izchil tartibda berilishi talab etiladi, aks holda foydalanuvchi uchun semantik noaniqlik yuzaga kelishi mumkin [1, 248].

Yoki "hosil" termini misolida ham semantik kengayish jarayonini kuzatish mumkin. Ushbu termin agrar sohada "yetishtirilgan mahsulot" ma'nosini bildirsa, umumtil leksikasida "natija" ma'nosida ham qo'llanadi. Bu esa terminning umumlashuvi va ixtisoslashuvi o'rtasidagi o'zaro aloqani ko'rsatadi. Shuning uchun izohli lug'atlarda "hosil" kabi birliklar ikki xil — terminologik va umumiy ma'noda alohida-alohida izohlanishi maqsadga muvofiqdir.

Sinonimiya hodisasini "chorva" va "mol" terminlari misolida ham ko'rish mumkin. Har ikkala birlik ma'lum darajada bir xil tushunchani ifodalasa-da, ularning qo'llanish doirasi va stilistik xususiyatlari farqlanadi. "Chorva" ko'proq ilmiy va rasmiy nutqda ishlatilsa, "mol" so'zi kundalik nutqda faolroq

uchraydi. Ta'kidlanganidek, bunday sinonimik qatorlar lug'atlarda belgilab berilsa, termin tanlashda aniqlik va izchillik ta'minlanadi[4].

Giperonimiya va giponimiya munosabatlarini "ekin" — "bug'doy", "arpa", "paxta" kabi terminlar misolida ko'rish mumkin. Bu yerda "ekin" umumiy tushuncha (giperonim) bo'lsa, "bug'doy", "arpa", "paxta" uning xususiy turlari (giponimlar) hisoblanadi. Bunday iyerarxik munosabatlar lug'atlarda aks ettirilsa, terminlarning semantik maydoni yanada aniq ochiladi va foydalanuvchi ularning o'zaro bog'liqligini tushunadi[2. 123].

Metaforik ko'chish asosida shakllangan terminlarga "ildiz otmoq" birikmasini misol qilish mumkin. Bu birlik dastlab biologik jarayonni ifodalasa, keyinchalik kengroq ma'noda "mustahkam o'rnamoq" degan semantik kengayishga ega bo'lgan. Bunday holatlar qishloq xo'jaligi leksikasining umumtil bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi va lug'atlarda bunday ko'chma ma'nolar ham izohlanishi zarurligini anglatadi [2, 122]. Shuningdek, terminlarning semantik aniqligi ularning real nutqdagi qo'llanishi bilan mustahkamlanadi. Masalan, "sug'orish" termini qishloq xo'jaligida aniq texnologik jarayonni bildiradi, biroq turli matnlarda uning qo'llanishi turlicha bo'lishi mumkin: ilmiy matnda u texnik jarayon sifatida, ommaviy nutqda esa oddiy amaliy faoliyat sifatida ifodalanadi. Shu sababli zamonaviy korpus tahlillari asosida bunday terminlarning qo'llanish kontekstlarini aniqlash va lug'atlarda keltirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi leksikasining semantik xususiyatlari ko'p qatlamli bo'lib, ular polisemiya, sinonimiya, ierarxik munosabatlar hamda ma'no kengayishi kabi hodisalar orqali namoyon bo'ladi. Bu esa izohli lug'atlarda terminlarni nafaqat izohlash, balki ularning semantik tizimini kompleks yoritish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Qishloq xo'jaligi leksikasining semantik xususiyatlarini yanada aniqroq ochib berish uchun terminlarning ichki semantik tuzilishini komponentlarga ajratib tahlil qilish muhimdir. Masalan, "yer unumdorligi" birikmasini olaylik. Ushbu termin ikki komponentdan — "yer" va "unumdorlik" dan tashkil topgan bo'lib, birinchi komponent obyektini, ikkinchisi esa uning sifat belgisini ifodalaydi. Semantik jihatdan bu birlik faqat "hosil berish qobiliyati" ni emas, balki tuproq tarkibi, agrotexnik ishlov va ekologik sharoitlar bilan bog'liq kompleks tushunchani bildiradi. Shu sababli izohli lug'atda bunday terminlar faqat qisqa ta'rif bilan emas, balki kengroq tushuntirish orqali berilishi maqsadga [2, 122–123].

Yana bir tahliliy misol sifatida "agrotexnika" terminini ko'rib chiqish mumkin. Ushbu birlik semantik jihatdan umumlashiruvchi (giperonim) xususiyatga ega bo'lib, u o'z ichiga "yerga ishlov berish", "sug'orish", "o'g'itlash", "ekin parvarishi" kabi ko'plab kichik jarayonlarni qamrab oladi. Demak, bu terminning lug'atdagi izohi faqat bitta jarayon bilan chegaralanmasdan, uning tarkibiy qismlarini ham qamrab olishi lozim. Aks holda, terminning konseptual hajmi to'liq ochilmaydi. Bu esa terminlarni konseptual yondashuv asosida tavsiflash zarurligini ko'rsatadi [5, 85].

"Paxta" termini misolida esa semantik torayish va ixtisoslashuv jarayonini kuzatish mumkin. Umumiy leksik birlik sifatida u o'simlik nomini bildiradi, biroq qishloq xo'jaligi terminologiyasida u nafaqat o'simlik, balki xomashyo, iqtisodiy mahsulot va agrar tizim elementi sifatida ham qo'llanadi. Demak, bu termin ko'p qatlamli semantik tuzilishga ega bo'lib, izohli lug'atlarda uning turli ma'no qirralari alohida-alohida izohlanishi zarur [1, 249].

Shuningdek, "o'g'it" termini misolida semantik differensiallashuv jarayonini kuzatish mumkin. Bu termin umumiy ma'noda "yer unumdorligini oshiruvchi modda" ni bildirs, ilmiy tasnifda u "organik o'g'it", "mineral o'g'it", "biologik o'g'it" kabi turlarga ajraladi. Bu holatda giperonim-giponim

munosabatlari aniq namoyon bo'лади va lug'atlarda ushbu ierarxiya ko'rsatilishi terminlarning tizimlilikini ta'minlaydi [2, 123].

Tahlil yana shuni ko'rsatadiki, ayrim terminlarda semantik noaniqlik yoki chegaraviylik ham uchraydi. Masalan, "fermer" va "dehqon" terminlari ko'pincha bir-biriga yaqin ma'noda qo'llanadi, biroq ularning semantik chegarasi mavjud: "fermer" ko'proq zamonaviy xo'jalik yuritish subyekti sifatida tushunilsa, "dehqon" an'anaviy agrar faoliyat bilan bog'liq tushunchani bildiradi. Bunday yaqin terminlarning lug'atlarda aniq farqlanishi semantik chalkashliklarning oldini oladi [4. 50-52]. Bundan tashqari, terminlarning kontekstual semantikasi ham muhim tahlil obyekti hisoblanadi. Masalan, "hosildorlikni oshirish" birikmasida "oshirish" fe'li umumiy ma'noda ko'paytirishni bildirsada, agrar kontekstda u maxsus agrotexnik tadbirlar majmuasini anglatadi. Bu esa terminlarning ma'nosi ko'pincha kontekst orqali aniqlanishini va lug'atlarda bunday kontekstual izohlarning berilishi zarurligini ko'rsatadi.

Shu tarzda olib borilgan tahliliy misollar qishloq xo'jaligi leksikasining semantik tizimi murakkab, ko'p qatlamli va o'zaro bog'langan birliklardan iborat ekanligini ko'rsatadi. Terminlarning ichki tuzilishi, ierarxik aloqalari, semantik kengayishi va kontekstual qo'llanilishi izohli lug'atlarda kompleks tarzda aks ettirilishi ularning ilmiy va amaliy qiymatini yanada oshiradi.

Xulosa

O'zbek izohli lug'atlarida qishloq xo'jaligi leksikasining semantik xususiyatlari terminlarning ko'p qatlamli va tizimli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Ular polisemiya, sinonimiya, giperonim-giponim munosabatlari hamda ma'no kengayishi va ixtisoslashuvi jarayonlari orqali shakllanadi. Tahlillar shuni anglatadiki, terminlarning lug'atlarda aniq, izchil va kontekstual jihatdan asoslangan holda berilishi ularning ilmiy va amaliy qo'llanish samaradorligini oshiradi. Shu bois qishloq xo'jaligi leksikasini tavsiflashda semantik tizimlilik, lingvokulturologik jihatlar va zamonaviy lingvistik yondashuvlarni uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bo'riyev J. Qishloq xo'jaligi terminlarining etimologik tavsifi [Elektron resurs] // Renaissance ilmiy jurnali. – 2025. – №5. – B. 247–250. – URL: <https://ojs.renaissance.com.uz/index.php/nrc/article/view/3760>.
2. Egamberdiyeva D D. Qishloq xo'jaligi atamarining leksik xususiyatlari tadqiqi // "Экономика и социум" №1(128)-2 2025. –B. 121–123.
3. **Qodirova G.** National-cultural characteristics and linguocultural markers of agricultural terminology: The case of English and Uzbek // International Journal of Artificial Intelligence. — 2025. — vol. 05. — p. 1912–1923. — URL: <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/download/7274/8129/16018>
4. Xamidov M. Qishloq xo'jaligi terminlarida sinonimiya hodisasi [Elektron resurs] // Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Vol. 2, №6. – B. 50–52. – URL: <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/1710>.
5. Дидигова Изабелла Борисовна. Терминологическая система теории текста в современном русском языке: дис. кандидат филологических наук: 10.02.01 - Русский язык. Магас. 2011. 192 с.